

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

1/3-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис



Nurmatova I.T. Maktabgacha katta yoshdagи bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatini tashkil etish uslubi	491
Jabborova O.M., Kamolova F.K. Boshlang‘ich ta’limda individual metodikadan foydalanish mazmuni	496
Sayliyeva M. M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining gumanitar fanlar turkumimi o‘qitish jarayonida kreativlik ko‘nikmasini shakllantirish	504
Eshmanova N.N., Matupayeva Sh.Z. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalarni joriy etishning o‘ziga xos imkoniyatlari	508
Mamatova A.M. O‘zbekistonda tarbiya masalasining yangi idroki	511
Tilanova S.B. STEAM yondashuvি asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik kompetensiyasini rivojlantirish	517
Usmanova Q.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash asoslari va tizimi	522
Mambetaliyev Q.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy fikrlashga o‘rgatishning pedagogik asosi	525
Xo‘jamiyorov S.Ch. Maktabgacha yoshdagи bolalarning mas‘uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-onalar hamkorligining ahamiyati	529
Typyumbetova Z.IO. Maktabgacha yoshdagи bolalarning xulq-atvorining shakllanishida nutqiy faoliyatning o‘rni	535
Xamidjonova M. Maktabgacha yoshdagи bolalarda innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati	539
Bo‘riyeva T.A. Bolalarning tabiatga oid tadqiqiy-ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida tarbiya turlarini rivojlantirish metodikasi	544
Tirkashov M. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarida axborot-tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarini shakllantirish metodlari	549
Berdiyev B. R. Matematika darslarida kombinatorika elementlari, mantiqiy masalalar yechishga o‘rgatish metodlari	553
Keldiyarova V.B. Konstruksiyaviy usullar orqali bolalarda ko‘rgazmali-obrazli tafakkurni shakllantirish	557
Keldiyarova M.F. Yosh mutaxassislarning kasbiy adaptatsiyasi jarayoniga tayyorlash	562
Yakubova G.L. Rasmiy va norasmiy ta’limning integratsiyasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy munosabatini shakllantirish metodikasi	567
Ashirova S.B. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik ta’monoti	571
Tilanova N.T. Montessori metodikasida bolalarga ekologik tarbiya berish	576
Nazirov U.Q. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari	581
Eshchanova G.O., Jumaniyozova N. F. Boshlang‘ich sinf o‘qish va matematika darslarida interfaol usullardan foydalanishga zamonaviy yondashuv	585
Rasulova Z. O‘yinlar vositasи asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish – didaktik zaruriyat sifatida	591
Ravshanqulova D.R. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarini turizm vositasи orqali ma’naviy-ahloqiy sifatlarini shakllantirish	595
Eshchanova G.O., Boltayeva M.I. Boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etishga zamonaviy yondashuv	601
Shabbazova D.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning ahamiyati	605
Xoliyeva S.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy fanlarni o‘qitishda kreativlikni rivojlantirish	610
Shermatova U.Sh. Boshlang‘ich sinflarda ekologik ta’limni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari	613
Shermatova U.Sh. Boshlang‘ich sinflarda ekologik ta’limni rivojlantirish metodikasi	618
Ne’matova D.B. Mantiqiy masalalar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlashni rivojlantirish	623



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TA’LIMNING KEYINGI TURLARIGA TAYYORLASH ASOSLARI VA TIZIMI

Usmanova Q.S.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘quvchi va ta’lim, ta’lim turlari, tayyorlash zaruriyati, bilim va malaka.

Ключевые слова: начальное класс, ученик и образование, виды образования, необходимость подготовки, знание и навыка.

Key words: elementary school, student and education, types of education, need for preparation, knowledge and skills.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti davrida boshlang‘ich ta’limni strategik rivojlantirish muhim vazifalardan hisoblanadi[1]. Bu borada ayniqsa boshlang‘ich ta’lim mazmuni va vazifalarida bo‘layotgan yangilanishlardan kelib chiqib, yuzaga kelayotgan muammolar bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi. Ana shunday muhim va ilmiy-tadqiqot ishi amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muammolardan biri boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlashdir. Mazkur o‘rinda e’tiboringizni ana shu masalaning zaruriyati taxliliga tortamiz.

1. ***Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash ehtiyojları.*** Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonida sifatli rivojlanishni amalga oshirish bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash ham nazariy va metodik muapmmo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi tarlariga tayyorlash ehtiyoji quyidagilar bilan begilanadi:

- 1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini umumiyl o‘rta ta’lim bosqichiga tayyorlash;
- 2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Prezident maktablariga tayyorlash;
- 3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy maktablarga tayyorlash;



4) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fanlar chuqurlashtirib o‘qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorlash[2].

Ushbu ehtiyojlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash dolzarb ilmiy muammo ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli bu borada maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish bugungi kundagi eng muhim pedagogik vazifalar sarasiga kirishini ta’kidlab o‘tish lozim.

2. *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash asoslari.* Boshlang‘ich ta’lim jarayonida aniq, tabiiy va gumanitar fanlar turkumlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur masala bo‘yicha bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari quyidagilarga asosan ta’limning keyingi turlariga tayyorlanishi kutilgan samarani beradi:

1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga ta’lim jihatidan tayyorlash;

2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tarbiyaviy jihatdan tayyorlash;

3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga faoliyat jihatidan tayyorlash;

4) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash bo‘yicha o‘quv adabiyotlari va O‘qituvchi kitobini mavzular bilan boyitish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga ilmiy, nazariy, pedagogik, metodik va amaliy jihatdan tayyorlash imkoniyatlarini beradi. Shu sababli mazkur masalalar bo‘yicha oldiy pedagogik ta’lim jarayonida nazariy va metodologik tadqiqotlar majmuini yaratish muxim ahamiyatga egadir.

3. *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash tizimi.* Umumuiy o‘rta ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash tizimini belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jihatdan bizningcha, mazkur masalada quyidagi tizimni hisobga olish kutilgan samarani berishini ta’kidlab o‘tish lozim:

1) o‘quv fanlarini chuqurlashtirilgan holda va ularning mavzularini ta’limning keyingi turlari o‘quv mavzulari bilan uyg‘unlashtirilgan tarzda o‘qitish vositasi tizimi;

2) boshlang‘ich ta’lim bosqichi va ta’limning keyingi turlarining o‘zaro hamkorligi natijasida o‘quvchilarni tayyorlash tizimi;

3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini layoqati va qiziqishiga ko‘ra ta’lim turlariga yo‘naltirib tayyorlash tizimi;



4) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini hududlar kesimi, jamoatchilik va ta’limdan manfaatdorlarning tashabbuslari hamda takliflari aossida ta’limning keyingi turlariga tayyorlash tizimi.

Bunday tizimga asoslanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga maqsadli tayyorlash imkonini beradi. Chunki bu tizimda asosan hamkorlik tamoyiliga tayangan o‘quv va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish negiz hisoblanadi. Shu jihatdan bunday tizimning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish ham dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash muammosi pedagogik strategiya sohasiga kiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash uchun bir necha amaliy tadbirlarni amalga oshirish ham taqozo etiladi. Bunday *amaliy tadbirlarning* eng muhimlari quyidagilardan iborat:

a) oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mazkur toifa o‘qituvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash bo‘yicha nazariy va metodik jihatdan qurollantirish;

b) Pedagoglarni malakasini oshirish va ularni yangi metodikalarga o‘rgatish markazlari vositasida amaliy faoliyatdagи boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni ta’limning keyingi tarlariga tayyorlash bo‘yicha malaka bilan ta’minalash;

v) ta’lim samaradorligini nazorat qiluvchi muassasalar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’limning keyingi turlariga tayyorgarlik darajasini monitoring qilib borish.

Bu amaliy tadbirlarni amalga oshirish qо‘yilayotgan muammoning yechimini tezkor topishda muhim mexanizmlar bo‘lib xizmat qiladi[3].

Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash masalasi ilmiy, nazariy, pedagogik, metodik va amaliy jihatlardan zaruriyat bo‘lib turibdi. Bu masala bo‘yicha o‘ziga xos tadqiqotlar majmuini yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz
2. Jabborova O.M. Boshlang‘ich ta’limda me’yoriy hujjatlarni yuritish. – Toshkent, 2023
3. Jabborova O. M. Boshlang‘ich ta’limda innovasion texnologiyalar. – Toshkent, 2023

РЕЗЮМЕ

Maqlolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash zaruriyat to‘g‘risida fikr yuritilgan va uning ehtiyojlari asoslangan.

РЕЗЮМЕ

В статье размышлено о вопросы необходимость подготовки учеников начальных класс в следующие видов и обоснования данной вопрос.

SUMMARY

The article discusses the need to prepare primary school students for the next types of education and their needs are justified.